“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=393

2026-yil
10-son
oktabr
ISSN 3093-8546



Insofli egallovchi himoyasida vindikatsiya va restitutsiyaning chegaralari: “domino effekti” muammosi va uning huquqiy yechimi

Islomjon Mirzayev,
“Business Lawyers Group” advokatlar firmasi advokati
Toshkent davlat yuridik universiteti mustaqil izlanuvchisi
e-mail: islomjon@blglawfirm.net

Аннотация. Mazkur maqolada post-sovet fuqarolik huquqining eng murakkab nazariy muammolaridan biri – insofli egallovchilar ishtirokidagi ishlarda vindikatsiya (mulkni talab qilib olish) va restitutsiya (bitimlarning haqiqiy emasligi oqibatlari) oʻrtasidagi oʻzaro munosabat tahlil qilinadi. “Domino effekti” – sudlar bitimlar zanjirini haqiqiy emas deb topish orqali FK 229-moddasini aylanib oʻtishi – insofli egallovchi instituti uchun tizimli tahdiddir. Rossiya KS RF 6-P (2003) va 16-P (2017, Duboves ishi) prinsiplari, shuningdek Rossiya Oliy Arbitraj Sudi va birgalikdagi Plenum amaliyoti, Germaniya BGB doktrinasi (jumladan § 816 – vakolatsiz tasarruf instituti), Italiya va Xitoy qonunchiligi, ingliz umumiy huquqidagi “holat oʻzgarishi” (change of position) himoyasi asosida, shuningdek Jizzax viloyatidagi “Alixanova – SDM HALL STORE” ishi misolida muallif Oʻzbekiston FK 229-moddasiga yangi 5-qism kiritish taklif etadi.

Калит сўзлар. insofli egallovchi, vindikatsiya, restitutsiya, domino effekti, FK 229-modda, FK 114-modda, KS RF 6-P, Duboves ishi.

Аннотация. В статье рассматривается одна из наиболее устойчивых теоретических проблем постсоветского гражданского права: взаимодействие виндикации и реституции в делах с участием добросовестных приобретателей. “Эффект домино” – практика судов признавать сделки в цепочке недействительными, обходя тем самым законодательные гарантии защиты добросовестных приобретателей по ст. 229 ГК РУз, – представляет собой системную угрозу самому институту добросовестного приобретения. Опираясь на постановления КС РФ, доктрину ГГУ (включая ключевой § 816 о распоряжении неуправомоченного лица), гражданские кодексы Италии и Китая, английскую защиту “изменения положения”, а также дело “Алиханова против SDM HALL STORE”, автор предлагает введение новой части 5 в ст. 229 ГК РУз.

Ключевые слова. добросовестный приобретатель, виндикация, реституция, эффект домино, ст. 229 ГК РУз, КС РФ 6-П, дело Дубовец.

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Annotation. This article addresses one of the most persistent theoretical problems in post-Soviet civil law: the interaction between vindication (rei vindicatio) and restitution in cases involving bona fide purchasers. The "domino effect" – whereby courts invalidate transactions in a chain, thereby circumventing statutory protections of bona fide purchasers under Article 229 of the Uzbek Civil Code – represents a systemic threat to the very institution of good faith purchase. Drawing on the landmark Russian Constitutional Court rulings, the German BGB doctrine (including the pivotal § 816 on disposition by an unauthorized person), Italian and Chinese civil codes, the English common-law "change of position" defence, and the "Alixanova v. SDM HALL STORE" case, the author proposes introducing a new Part 5 to Article 229 of the Uzbek Civil Code, explicitly barring the application of restitution consequences to bona fide purchasers.

Keywords. bona fide purchaser, vindication, restitution, domino effect, Article 229 Civil Code of Uzbekistan, Russian Constitutional Court Ruling 6-P.

Kirish

Quyida keltirilgan muammo oʻzbekistonlik aksariyat yuristlar uchun tanish deb oʻylaymiz. Mulkdor ***M*** firibgar ***F*** tomonidan amalga oshirilgan aldamchilik bitimi orqali uy-joyidan ayriladi. ***F*** uyni xaridor ***A***ga sotadi, u firibgarlik haqida hech narsa bilmaydi va bozor bahosida uyga haq toʻlaydi. ***A*** keyinchalik uyni ikkinchi xaridor ***B***ga sotadi – u ham haqiqiy vaziyatdan bexabar. Mulkdor ***M*** firibgarlikni aniqlab, sudga murojaat qiladi – ammo u bevosita ***B***ga qarshi vindikatsiya da'vosi emas, balki ***F*** va ***A*** oʻrtasidagi bitimlarni haqiqiy emas deb topish talabini qoʻyadi. Bitimlar haqiqiy emas deb topilgandan soʻng, "restitutsiya" oqibatlari zanjir boʻylab ta'sir qiladi va oxirgi halqa – ***B*** – insofli egallovchi boʻlishiga qaramay, uydan ayriladi.

Bu – "domino effekti" deb ataladigan tizimli huquqiy muammodir. U Oʻzbekiston FK 229-moddasida[1] mustahkamlangan insofli egallovchi himoyasini amalda bekor qilib qoʻyishi mumkin. Muammo shundaki, qonun ikkita parallel va potensial ziddiyatli doktrinani oʻzida aks ettiradi: FK 229-modda mulkdorning insofli uchinchi shaxsdan mulkni talab qilib olish imkonini cheklaydi; FK 114-modda (bitimlar haqiqiy emasligi oqibatlari) esa bunday cheklovni nazarda tutmaydi. Sudlar mulkdorning kuchli da'volariga duch kelganda, tizimli ravishda restitutsiya yoʻlini tanlaydi va bu orqali FK 229-modda kafolatlarini aylanib oʻtadi.

Ushbu ziddiyatning ildizlari, aslida, Rim huquqining oʻziga borib taqaladi. Simmermann koʻrsatganidek[2], klassik Rim huquqida *rei vindicatio* (mulkiy da'vo) va *condictio indebiti* (notoʻgʻri toʻlanganni qaytarish da'vosi) qat'iy equal ajratilgan: birinchisi ashyoning oʻzini, ikkinchisi esa nooʻrin boyishni bartaraf etishga qaratilgan edi. Rim yuristlari uchun bu ikki vosita hech qachon bir-birining oʻrnini bosa olmasdi – ashyo hali mavjud va aniqlanadigan boʻlsa, faqat *rei vindicatio* qoʻllanilardi. Post-sovet fuqarolik kodekslari, aksincha, restitutsiyani (mohiyatan *condictio*ning zamonaviy avlodi) ashyoviy da'vo oʻrnida ishlatishga yoʻl qoʻyadi – aynan shu texnik imkoniyat "domino effekti"ni tugʻdiradi.

Ushbu muammoning nazariy ahamiyati milliy chegaralardan uzoqroqqa ketadi. U zamonaviy fuqarolik-huquqiy tizimlarining eng fundamental hal

etilmagan ziddiyatlaridan birini aks ettiradi: statik mulk himoyasi (mulkdor foydasiga) va dinamik muomala himoyasi (insofli egallovchi va bozor barqarorligi foydasiga) oʻrtasidagi ziddiyat. Oksford universiteti yurist-olimi M. Krauford taʼkidlaganidek, “mulkdorlar va insofli xaridorlar oʻrtasidagi nizolarda qonunning asosiy maqsadi taraflar oʻrtasida adolat oʻrnatish emas, balki oʻgʻrilikni ragʻbatsizlantirishdir”[3]. Xuddi shunday, Shvars va Skott Columbia Law Reviewʻdagi mashhur maqolasida mavjud yechimlarni “xaosli” deb taʼriflashgan[4].

Ushbu tadqiqotning Oʻzbekiston uchun dolzarbligi uchta faol omilga asoslanadi. Birinchidan, 2022-yil 24-avgustdagi PF-198-son Prezident Farmoni Oʻzbekistonning mulk huquqi sohasidagi keng qamrovli islohot jarayonining bir qismi sifatida insofli egallovchi institutini takomillashtirish chora-tadbirlarini boshladi. Ikkinchidan, yangi Oʻzbekiston Fuqarolik kodeksi loyihasining ishlab chiqilayotganligi tizimli islohot uchun noyob imkoniyat yaratmoqda. Uchinchidan, soʻnggi yillarda Oʻzbekiston sudlari amaliyotida koʻzga tashlangan yirik ishlar – ayniqsa, quyida tahlil qilinadigan “Alixanova – SDM HALL STORE” ishi – domino effekti muammosining faqat nazariy emas, amaliy ahamiyatga ham ega ekanini koʻrsatadi.

1. Vindikatsiya va restitutsiya – doktrinaviy farq

Vindikatsiya va restitutsiya oʻrtasidagi farq – Rim huquqiga asoslangan fuqarolik-huquqiy tizimlarining fundamental konseptual ikki yoqlamaligidir. Vindikatsiya (rei vindicatio) – mulkiy vosita, yaʼni mulkdorning har qanday egallovchiga qarshi mulkiy daʼvosi. Oʻzbekiston qonunchiligidagi ifodasi FK 228-modda (umumiy vindikatsiya) va 229-moddada (insofli egallovchiga nisbatan vindikatsiya chegaralari) mustahkamlangan. Restitutsiya (fuqarolik-huquqiy maʼnoda) – oqibatli vosita: u bitimning haqiqiy emasligidan avtomatik ravishda kelib chiqadi va har bir tarafni bitim boʻyicha olgan narsani qaytarishga majburlaydi. Oʻzbekiston qonunchiligida u FK 114-moddada kodifikatsiya qilingan: “Bitim haqiqiy emas deb topilsa, har bir taraf bitim boʻyicha olingan hamma narsani ikkinchi tarafga qaytarib berishga majbur”.

Nazariy nuqtayi nazardan, ushbu ikkita vosita har xil vazifalarni bajaradi. Vindikatsiya “mulkiy status quo ante”ni, yaʼni mulkdorning doimiy huquqiy unvonini himoya qiladi. Restitutsiya esa “shartnoma yaxlitligini”, yaʼni haqiqiy emas shartnomalarning oqibatlarini bekor qilishni himoya qiladi. Ushbu funksional farq nemis doktrinasida (Wieling) aniq ajratilgan, ammo post-sovet amaliyotida koʻp hollarda chalkashtiriladi[5].

Germaniya huquqida ushbu farq toʻrtta aniq norma orqali institutsionalizatsiya qilingan – ularning har birini alohida koʻrib chiqamiz. **§ 985 BGB**[6] – klassik vindikatsiya daʼvosi (*Herausgabeanspruch*): mulkdor ashyoni har qanday egallovchidan talab qilib olishi mumkin, egallovchi mulkka nisbatan egalik huquqiga ega boʻlmasa. Misol: *Klaus*ning velosipedi oʻgʻirlangan va *Diter*ning qoʻlida. Klaus § 985 boʻyicha Diterga qarshi bevosita ashyoviy daʼvo qilib, velosipedni talab qila oladi – ushbu daʼvo uchun Diterning aybi yoki insofsizligi isbotlanishi shart emas, faqat mulkdorlik va boshqa shaxsning egaligi isbotlansa kifoya.

§ 986 BGB (egalik qilish huquqi, *Recht zum Besitz*) – § 985 boʻyicha daʼvoga qarshi asosiy eʼtiroz: agar egallovchi mulkdorga nisbatan egalik qilish huquqiga ega boʻlsa (masalan, ijara shartnomasi asosida), vindikatsiya daʼvosi rad etiladi. Misol: yuqoridagi misolda, agar Diter velosipedni Klausning oʻzidan ijaraga

olgan bo‘lsa, u § 986 bo‘yicha egalik huquqiga ega va Klausning § 985 bo‘yicha da'vosi muvaffaqiyatsiz bo‘ladi – toki ijara muddati tugamaguncha.

§ 812 BGB – asossiz boyishdan qaytarishning umumiy da'vosi (*condictio*ning zamonaviy shakli): har kim boshqa shaxs hisobidan huquqiy asossiz boyigan bo‘lsa, buni qaytarishi shart. Bu norma § 985dan tubdan farq qiladi: § 985 ashyoning o‘zini talab qiladi (ashyoviy-huquqiy vosita), § 812 esa pul ekvivalentini yoki boyishning o‘zini (majburiyat-huquqiy vosita) talab qiladi va aybga bog‘liq emas, faqat obyektiv boyish faktiga asoslanadi.

Germaniya tizimidagi eng muhim, lekin ko‘pincha e'tibordan chetda qoladigan norma – **§ 816-modda 1-band BGB** (*Verfügung eines Nichtberechtigten* – vakolatsiz shaxsning tasarrufi)dir. Ushbu norma aynan “vindikatsiya va restitutsiya chegarasi” muammosining nemis yechimidir: agar vakolatsiz shaxs mulkdorning ashyosini insofli uchinchi shaxsga samarali ravishda (ya'ni § 932 BGB bo‘yicha insofli egallash orqali) sotgan bo‘lsa – mulkdor endi ashyoni vindikatsiya qila olmaydi (chunki uning mulk huquqi § 932 orqali allaqachon so‘ngan), lekin u § 816(1) bo‘yicha vakolatsiz shaxsdan *sotishdan olingan pulni* talab qilish huquqiga ega bo‘ladi. Misol: *Ing*ening mashinasini unga ijaraga topshirilgan *Paul* o‘ziniki deb *Xaynrixga* sotgan; Xaynrix insofli, § 932 bo‘yicha mashinaga mulkdor bo‘ladi. Inge Xaynrixdan mashinani qaytarib ololmaydi (vindikatsiya yo‘li yopiq), lekin § 816(1) bo‘yicha Pauldan u olgan sotish pulini (masalan, 5000 yevro) talab qilish huquqiga ega. Bu – mulkdor manfaati *ashyoviy da'vo emas, balki pul da'vosi* orqali himoyalanadigan yagona tizimli mexanizm bo‘lib, u mamlakatimiz uchun ham ibratli yechimdir: insofli egallovchi hech qachon xavf ostida qolmaydi, zarar esa to‘liq vakolatsiz sotuvchi zimmasiga o‘tadi.

2. “Domino effekti” – tizimli muammo sifatida

“Domino effekti” post-sovet fuqarolik kodekslari texnik, ammo oqibatli xususiyatidan kelib chiqadi. FK 114-moddasi (yoki uning ekvivalentlari) qo‘llanilganda, sudlar ikki tomonlama restitutsiyani tatbiq qiladi – har bir haqiqiy emas bitim taraflari olgan narsani bir-biriga qaytarishi kerak. Zanjir bo‘ylab qo‘llanilganda, bu zanjirli qaytishlarga olib keladi: *A* mulkni *F*ga qaytarishi kerak, *F* esa mulkni *M*ga qaytarishi kerak. Ushbu zanjirda *B* (oxirgi insofli egallovchi) domino effektiga ilinadi: chunki *A* mulkni *F*ga qaytarishi kerak (uni oldindan *B*ga sotgan), amaliy natija – *B* begunoh uchinchi shaxs bo‘lishiga qaramay mulkdan ayriladi.

Rossiyalik olim D.O. Tuzov ushbu muammoni o‘zining aynan shu mavzuga bag‘ishlangan monografiyasida[7] nazariy jihatdan chuqur asoslaydi. Uning fikricha, insofli egallash huquqi haqiqiy emas deb topilgan bitimning o‘zidan emas, balki *murakkab yuridik tarkib*dan (yuridik sostav) kelib chiqadi – bunga shartnoma tuzilishi, ashyoning topshirilishi, evazli (pullik) egallash, egallovchining insofliligi va ashyoning mulkdor ixtiyoridan uning roziligi bilan chiqishi kabi bir qator mustaqil elementlar kiradi. Demak, ushbu elementlar mavjud bo‘lsa, insofli egallash *haqiqiy emas bitimga qaramasdan* yuzaga keladi – restitutsiya esa, mohiyatan, boshqa yuridik asosga (bitimning o‘ziga) qaratilgani sababli, bu murakkab tarkibni bekor qila olmasligi kerak. Zamonaviy rus adabiyotida ham, masalan Malbin 2024-yilgi maqolasida, xuddi shu xulosaga – sud amaliyotida restitutsiya va vindikatsiyani qarama-qarshi qo‘yishda “metodologik xatolik” mavjudligiga – kelinadi.

K.I. Sklovskiy Rossiya mulk huquqi boʻyicha oʻzining markaziy asarida[8] ushbu muammoni “post-sovet fuqarolik doktrinasining fundamental kamchiliklaridan biri” sifatida taʼriflaydi. U shunday yozadi: “Insofli egallovchi instituti – fuqarolik huquqining noyob qoidasidir; uni restitutsiya orqali aylanib oʻtish institutni amalda bekor qilish bilan barobardir”. Ushbu diagnoz Oʻzbekiston fuqarolik huquqiga ham toʻliq tatbiq etiladi.

Domino effektining iqtisodiy oqibatlari jiddiy. Shvars va Skott oʻyin nazariyasi tahlili orqali koʻrsatganidek, insofli egallovchilar yuqori sudlashuv xavfiga duch kelganda, ular “sotuvchi maqomini sub-optimal tekshirish”ga moyil boʻladi – bu paradoksal ravishda oʻgʻrilikning umumiy ijtimoiy xarajatlarini oshiradi. Domino effekti aynan shu muammoni yaratadi: xaridorlar vindikatsiya kafolatlariga tayanolmaydi, chunki restitutsiya aylanib oʻtish yoʻlini taʼminlaydi – bu esa, oʻz navbatida, xaridorlarni yo ortiqcha (va iqtisodiy jihatdan samarasiz) tekshiruvga, yo umuman tekshirmaslikka undaydi.

3. Rossiya yechimi: KS 6-P (2003) va 16-P (2017)

Rossiya Federatsiyasi domino effekti muammosiga post-sovet hududida birinchi va eng qatʼiy ravishda roʻpara keldi. 2003-yil 21-apreldagi 6-P sonli mashhur qarorida Konstitutsiyaviy Sud shunday hal etdi: Rossiya FK 167-moddasining 1 va 2-bandlari (Oʻzbekiston FK 114-moddasining ekvivalenti) “ularning konstitutsiyaviy-huquqiy maʼnosi Rossiya FK 302-moddasi bilan normativ birlikda insofli egallovchiga nisbatan tatbiq etilishi mumkin emas, agar bu qonunda bevosita koʻzda tutilmagan boʻlsa”.

Sudning mulohazasi ikki muhim bosqichda amalga oshirildi. Birinchi, Sud “vositalar iyerarxiyasi”ni oʻrnatdi: “Fuqarolik kodeksining 302-moddasi maʼnosidagi insofli egallash faqat mulk toʻgʻridan-toʻgʻri mulkdordan emas, balki mulkni ajratish huquqiga ega boʻlmagan shaxsdan olingan holda mumkinligi tufayli, bunday qonunbuzilishi bilan tuzilgan bitim oqibati ikki tomonlama restitutsiya emas, balki mulkni noqonuniy egalikdan qaytarib olish (vindikatsiya)dir”. Ikkinchi, u “protsessual qoida”ni keltirdi: “Oʻzini mulk egasi deb hisoblaydigan shaxs huquqlari insofli egallovchiga qarshi daʼvo qanoatlantirish yoʻli bilan, FK 167-moddasining 1 va 2-bandlari tomonidan oʻrnatilgan huquqiy mexanizmdan foydalanish orqali himoyalanmaydi”.

Diqqatga sazovor jihati shundaki, ushbu prinsip Konstitutsiyaviy Sud bilan bir qatorda Rossiyaning umumiy va xoʻjalik sudlari tomonidan ham mustaqil ravishda rivojlantirildi. Rossiya Oliy Sudining va (u chogʻdagi) Oliy Arbitraj Sudining 2010-yil 29-apreldagi qoʻshma Plenum qarorining 35-bandida xuddi shu qoida takrorlandi: agar mulk uni ajratish huquqiga ega boʻlmagan shaxsdan olingan boʻlsa, mulkdor faqat vindikatsiya daʼvosini qoʻya oladi. Keyinchalik Oliy Arbitraj Sudi Prezidiumi oʻzining 2011-yil 5-apreldagi 15278/10-son qarorida ushbu prinsipni tijorat-huquqiy nizolar doirasida ham tasdiqladi – yaʼni prinsip nafaqat konstitutsiyaviy, balki odatiy sud amaliyotining ham barqaror qismiga aylandi. Bu – Oʻzbekiston uchun muhim saboq: domino effektini toʻxtatish uchun bir xil prinsipning turli sud instansiyalari (Konstitutsiyaviy, fuqarolik, xoʻjalik) tomonidan izchil takrorlanishi talab etiladi.

2003-yil qarori oʻn toʻrt yildan soʻng 2017-yil 22-iyundagi 16-P sonli qaror – Duboves ishi – bilan kuchaytirildi. Bu yerda Sud aniq bir ssenariyni koʻrsatdi – publik organlar (egasiz mulkni merosxoʻr sifatida) insofli turar joy egallovchilariga qarshi daʼvo qilish. Sud shunday hal etdi: “Muruvvatli organlar

tomonidan egasiz mulk ustidan nazorat qilishda ehtiyotkorlik va oqilonalik talablarining e'tiborsiz qoldirilishi fuqarolarning, ayniqsa turar joy insofli egallovchilarining mulkiy va noimulkiy huquqlariga ta'sir etmasligi kerak”. Bu – kengroq konstitutsiyaviy prinsipni oʻrnatdi: publik-huquqiy manfaatlar insofli egallovchi himoyasidan ustun boʻlmaydi.

4. Xorijiy tajriba

Germaniya domino effektini konstitutsiyaviy adolat mulohazasi orqali emas, Fuqarolik kodeksining oʻz darajasida arxitekturali ajratish orqali hal etadi. Yuqorida koʻrilgan §§ 985, 986, 812 va 816 BGB tizimi [9] – §§ 987-1003 BGB da mustahkamlangan kengroq “mulkdor-egallovchi munosabatlari” (*Eigentümer-Besitzer-Verhältnis*) tizimi bilan birga – ashyoviy va majburiy-huquqiy da'volarni izchil ajratib turadi. §§ 892-893 BGB esa koʻchmas mulk uchun “yer reestriga jamoat ishonchliligi” (*öffentlicher Glaube des Grundbuchs*) prinsipini oʻrnatadi. Ushbu qoidalar – vindikatsiya yoki asossiz boyish sifatida ifodalansa ham – mulkni qaytarib olishga nisbatan mutlaq toʻsiq sifatida ishlaydi, chunki § 816(1) restitutsiyaning funksional oʻrnini allaqachon band qilib qoʻyadi: mulkdorning yagona imkoniyati vakolatsiz sotuvchidan pul talab qilishdir, ashyoning oʻzini emas.

Italiya yechimi (Codice Civile Art. 1153)[10] “possesso vale titolo” prinsipini qoʻllaydi: koʻchadigan mulkning insofli egallovchisi, sotuvchining unvonidagi har qanday kamchilikka qaramay, topshirish paytidayoq mulkdor boʻladi. Bu nemis modelidan ham kuchliroq himoya yaratadi (lekin koʻchadigan mulk bilan cheklangan). Italiya asossiz boyish umumiy qoidasi (Art. 2033 CC, *indebito oggettivo*) esa – germaniyadagiga oʻxshab – Art. 1153 doirasida allaqachon mulkdor boʻlgan insofli egallovchiga nisbatan umuman qoʻllanilmaydi, chunki unda “asossiz” boyish yoʻq – egallash qonunga muvofiq sodir boʻlgan.

Xitoy yechimi (2020-yil FK Art. 311) ayniqsa muhim – u ham Gʻarb fuqarolik-huquqiy an'analarini, ham post-sovet tajribalarini toʻliq hisobga olib ishlab chiqilgan. Xitoy FK shuningdek Art. 235ʻda mulkdorning mulkni talab qilib olish huquqini (vindikatsiyaning xitoy analogi) alohida mustahkamlaydi – ammo Art. 311 shartlari (insoflilik, oqilona baho, topshirish) bajarilgan holatda, Art. 235 boʻyicha da'vo insofli egallovchiga qarshi qoʻllanilmaydi, xuddi german va italiya tizimlarida boʻlgani kabi.

Birlashgan Qirolik yechimi – Land Registration Act 2002, 58-modda – eng radikaldir: u “reestrning qat'iy tabiati” (conclusive nature of the register) prinsipini oʻrnatadi. Insofli egallovchi reestrda mulkdor sifatida qayd etilgandan soʻng, uning huquqiy unvoni huquqiy jihatdan qat'iydir. Asosiy bitim haqiqiy boʻlmasa ham, egallovchi mulkni saqlab qoladi. Mulkdorning chorasi davlat kompensatsiya jamgʻarmasidan pul kompensatsiya olishdir, mulkni qaytarish emas.

Ingliz umumiy huquqida, koʻchmas mulk reestri tizimidan tashqari, domino effektiga oʻxshash muammo – pul va boshqa qiymat vositalarining zanjir boʻylab oʻtishi – “holat oʻzgarishi” (*change of position*) himoyasi orqali hal qilinadi. Ushbu himoya birinchi marta House of Lordsʻning ***Lipkin Gorman v Karpnale Ltd [1991] 2 AC 548*** ishida rasman tan olindi. Ish holatlari: advokatlar firmasining sherigi *Kass* firmaning hisobvaragʻidan 220,000 funtni noqonuniy ravishda oʻzlashtirib, uni *Pleyboy* qimor klubida oʻynab yuborgan; klub bu pulning oʻgʻirlanganidan bexabar edi. Lordlar palatasi firmaning klubga nisbatan asossiz boyish da'vosini qanoatlantirdi, lekin klubning “holat

oʻzgarishi” himoyasini ham tan oldi: klub faqat *sof* foydani (yaʼni oʻyinda yutgan pulni chiqarib tashlab, qolgan qismni) qaytarishi shart boʻldi, chunki u boshqa bir qismini Kassga yutuq sifatida qaytarib toʻlagan va shu tariqa oʻz holatini ishonchli ravishda oʻzgartirgan edi. Bu ish – domino effektiga qarshi ingliz umumiy huquqidagi funksional javob: u restitutsiyani butunlay taqiqlamaydi (nemis va post-sovet yondashuvidan farqli), balki insofli, oʻz holatini oʻzgartirgan uchinchi shaxsning javobgarligini *xolis miqdoriy chegaralaydi*.

5. Sud ishi: sud amaliyotining tahlili

Oʻzbekistonda domino effekti muammosining amaliy dolzarbligi 2026-yilda sudda koʻrib chiqilgan “Alixanova – SDM HALL STORE” ishi misolida ochiq namoyon boʻladi. Ish tijoriy koʻchmas mulk zanjiriga oid edi: daʼvogar ilk boshlangʻich oʻtkazish (2007) haqiqiy emasligini iddao qildi; mulk keyin bir qator bitimlar orqali oʻtgan va oxirgi marta SDM HALL STORE MCHJ tomonidan insofli egallovchi sifatida olingan edi.

Daʼvogarning sudlashuv strategiyasi domino effekti yondashuvining yorqin misoli edi – 229-modda boʻyicha bevosita vindikatsiya daʼvosi (u SDM HALL STOREʻning insofli egallovchi maqomi tufayli muvaffaqiyatsiz boʻlardi) oʻrniga, daʼvogar zanjirdagi har bir bitimni haqiqiy emas deb topishni talab etdi, bu orqali FK 114-moddasida nazarda tutilgan zanjirli restitutsiyani ishga solishga harakat qildi. Tuzov terminologiyasidan foydalanadigan boʻlsak, sud bu yerda SDM HALL STOREning murakkab yuridik tarkib (shartnoma, topshirish, evazlilik, insoflilik, mulkdorning ixtiyoriy roziligi) orqali insofli egallash huquqini allaqachon qoʻlga kiritganini – va bu huquq dastlabki bitimning taqdiridan mustaqil ekanini – baholashi lozim edi. Ushbu ish mahalliy sud tomonidan batafsil koʻrib chiqildi – sud insofli egallovchi maqomi va restitutsiya chegaralarini sistemali tahlil qildi, bu milliy huquqiy tizim uchun muhim pretsedent boʻldi.

“Alixanova” ishi koʻrsatgan narsa – hozirgi Oʻzbekiston doktrinaviy asosining tizimli zaifligidir: sud bir tomonni insofli egallovchi deb tan olgan taqdirda ham, restitutsiya mexanizmlarining parallel ravishda mavjudligi doimiy sudlashuv xavfi va huquqiy noaniqlik yaratadi. FK 229-moddasini tizimli isloh qilmasdan, restitutsiyani insofli egallovchilarga nisbatan aniq taqiqlamasdan bunday ishlar davomiy uzoq sudlashuvlar va nomutanosib natijalarni keltirib chiqarishda davom etadi.

Yuqorida bayon qilingan qiyosiy tahlil va doktrinaviy yondashuvlardan kelib chiqib, Oʻzbekiston Fuqarolik kodeksiga quyidagi mazmundagi yangi 5-qism taklif etiladi:

“Mol-mulk insofli egallovchida boʻlganda, bitimlarning haqiqiy emasligi oqibatlarini qoʻllash yoʻli bilan (ushbu Kodeksning 114-moddasi) uni talab qilib olishga yoʻl qoʻyilmaydi. Bunday holatlarda mulkdor huquqlarini himoya qilish ushbu Kodeksning 228-230-moddalarida nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi”.

Ushbu norma uch doktrinaviy vazifani bir vaqtda bajaradi. Birinchidan, u hozirgi noaniqlikni bartaraf etib, domino effektiga qonunchilik darajasida ochiq toʻsiq qoʻyadi. Ikkinchidan, u mulkdorning barcha vositalarini vindikatsiya yoʻnalishi (229-modda va uning istisnolari) orqali qoʻllaydi, doktrinaviy izchillikni saqlaydi. Uchinchidan, u mulkdorning muqobil vositalarini, ayniqsa yaqinda joriy qilingan kompensatsiya mexanizmini (PF-198) saqlab qoladi – mulkdorning zarari mulkni qaytarib olish emas, balki kompensatsiya orqali

qoplanadi.

Taklif etilayotgan o‘zgartish yetakchi qiyosiy olimlar (Salomons; Crawford; Schwartz va Scott; Tuzov) tomonidan aniqlangan xalqaro uyg‘unlashuv tendensiyasiga mosdir. U O‘zbekiston qonunchiligini Rossiya Konstitutsiyaviy Sudining yondashuvi, Germaniya arxitekturali ajratishi (jumladan § 816 BGB), Italiya “possesso vale titolo” prinsipi, Xitoy FK Art. 311 asosi va ingliz “holat o‘zgarishi” himoyasi bilan uyg‘unlashtiradi, ayni paytda PF-198 tomonidan boshlangan O‘zbekiston mulk-huquqiy islohotining noyob xususiyatlarini saqlaydi.

Xulosa. Ushbu maqola “domino effektini”, ya'ni insofli egallovchi himoyasini bitimlar haqiqiy emasligi va restitutsiya mexanizmi orqali tizimli ravishda aylanib o‘tishni post-sovet fuqarolik huquqining eng dolzarb hal etilmagan muammolaridan biri sifatida bayon qildi. Muammo oddiy texnik emas: u ishonchli tijoriy bitimlar asosini buzadi va mulk bozorlarida doimiy noaniqlik yaratadi.

Qiyosiy tahlil ko‘rsatadiki, yetakchi davlatlar ushbu muammoni turli, ammo funksional jihatdan uyg‘unlashadigan yechimlar bilan hal etishgan: Rossiya konstitutsiyaviy adolat va sud amaliyoti orqali (6-P, 16-P qarorlari, Plenum №10/22 va VAS Prezidiumi amaliyoti), Germaniya arxitekturali ajratish orqali (§§ 985, 986, 812, 816 BGB), Italiya “possesso vale titolo” prinsipi orqali (Art. 1153), Xitoy komulyativ-shartlar yondashuvi orqali (Art. 311), Birlashgan Qirolik reestrning qat'iy tabiati orqali (Land Registration Act 2002), ingliz umumiy huquqi esa “holat o‘zgarishi” himoyasi orqali (Lipkin Gorman ishi). Ushbu yechimlarning har biri umumiy asosiy prinsipni ifodalaydi: insofli egallash o‘rnatilgandan so‘ng, egallovchining huquqiy unvoni mulkdorning qaytarib olishining har qanday shakliga qarshi ishonchli bo‘lishi kerak.

O‘zbekiston FK 229-moddasiga taklif etilayotgan o‘zgartish insofli egallovchilarga nisbatan restitutsiyani taqiqlovchi yangi 5-qismni kiritish ushbu umumiy prinsipni O‘zbekiston fuqarolik huquqining o‘ziga xos kontekstida amalga oshiradi. PF-198 tomonidan o‘rnatilgan kompensatsiya mexanizmi bilan birlashtirilganda, u muallif ilgari taklif etgan “ikki qanotli himoya tizimi”ni yaratadi: insofli egallovchilar yoki mulkni saqlab qolish (vindikatsiya kafolatlari) orqali, yoki kompensatsiya (davlat fondi) orqali himoyalanadi. Har ikki holda ham natija huquqiy jihatdan aniq va iqtisodiy jihatdan samarali.

O‘zbekiston Fuqarolik kodeksiga o‘zgartirish kiritish boshqa post-sovet davlatlar uchun namuna berishi mumkin va insofli egallash doktrinalarining xalqaro uyg‘unlashuviga hissa qo‘shishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (birinchi qism), 1995-yil 21-dekabr, 163-I-son, 229-modda. URL: https://lex.uz/docs/111189.

2.Zimmermann R. The Law of Obligations: Roman Foundations of the Civilian Tradition. – Oxford: Clarendon Press, 1996. – P. 834-889 (condictio indebiti va rei vindicatio o‘rtasidagi Rim huquqidagi tarixiy farq).

3.Crawford M.J.R. The Riddle of the Good Faith Purchaser // Oxford Journal of Legal Studies. – 2024. – DOI: 10.1093/ojls/gqae037.

4.Schwartz A., Scott R.E. Rethinking the Laws of Good Faith Purchase // Columbia Law Review. – 2011. – Vol. 111. – P. 1332-1383. URL: https://scholarship.law.columbia.edu/faculty_scholarship/187.

5. Wieling H.J. Sachenrecht. – 5. Auflage. – Berlin: Springer, 2007. – §§ 12-13. DOI: https://doi.org/10.1007/978-3-540-37404-6

6. Bürgerliches Gesetzbuch (BGB), § 985 (Herausgabeanspruch – vindikatsiya da'vosi). URL: https://www.gesetze-im-internet.de/bgb/__985.html

7. Bürgerliches Gesetzbuch (BGB), § 985 (Herausgabeanspruch – vindikatsiya da'vosi). URL: https://www.gesetze-im-internet.de/bgb/__985.html

8. Sklovskiy K.I. Sobstvennost v grajdanskom prave. – 5-ye izd., pererab. – M.: Statut, 2017. – S. 385-410.

9. Wieling H.J. Sachenrecht. – 5. Auflage. – Berlin: Springer, 2007. – §§ 15-16 (Eigentümer-Besitzer-Verhältnis – mulkdor-egallovchi munosabatlari tizimi, §§ 987-1003 BGB).

10. Codice Civile italiano, Art. 1153 (possesso vale titolo). Art. 2033 (Indebito oggettivo – asossiz boyish umumiy qoidasi). URL: https://www.brocardi.it/codice-civile/libro-terzo/titolo-viii/capo-ii/sezione-ii/.